

**YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA TA'LIM TARBIYANING O'RNI***Xidirova Nilufar Shuxratovna**Buxoro davlat universiteti**Pedagogika va sport faoliyati fakulteti 14-3BT-20 guruh talabasi*

**Kalit soʻzlar:** Yosh avlod, talim, tarbiya, komil inson. ma'naviyat.

**Annotatsiya:** Oxirgi yillarda O'zbekistonda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning mustaqil hayotga qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, ta'lim sifatini oshirish, boshlang'ich ta'limda yangi texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar yaratish hamda amaliyotga keng joriy etishdan iborat.

**Key words:** Young generation, education, upbringing, perfect person. spirituality.

**Abstract:** In recent years, the education of eight generations in Uzbekistan, to create all the necessary conditions for them to start an independent life, improve the quality of education, It consists in creating new ideas aimed at wide introduction of new technologies in primary education and wide introduction into practice.

Yosh avlodni komil, barkamol avlod darajasida tarbiyalash, voyaga yetkazish jamiyatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqil yangi O'zbekistonimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol avlod yoshlar zarurligi sir emas. To'g'ri yo'lga qo'yilgan amaliy tarbiya milliy istiqloq mafkurasini, ma'rifiy-ma'naviy, madaniy taraqqiyot yo'lidagi barcha ishlarni amalga oshirishni kafolatlaydi.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish ayniqsa boshlang'ich ta'lim o'qituvchining g'oyaviy e'tiqod, kasb maxoratiga, san'ati, istedodi va madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog'liqdir. Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning birinchi navbatdagi vazifalaridan biridir.

O'quvchi bilimini faqat darsda emas, darsdan tashqari uyda ota-ona bilan birga bilim egallashga erishish lozim. Yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishda asosan oila, maktab va maxalla birgalikda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quv jarayonining muhim funksiyalaridan biri rivojlantiruvchi funksiyalaridir. Amaliy mashg'ulotlar talabaga idrok va xotira, diqqat-e'tiqod, tasavvur va mantiqiy birlashtirishi kerak, unda o'zlashtirishga mayl-rag'bat nechog'lik zo'r bo'lsa, natija ham, shunchalik samarali bo'lib chiqadi. O'qituvchi o'quvchilarni bilimini tekshirish va baholashda turli usullar, ya'ni savol-javob, test, qisqa yozma ish, tarqatma materiallar, mashq yozish yoki masala yechish usullarni qo'llay bilishi lozim. Chunki bunday usullar o'quvchilar faolligini kuchaytiradi, eslab qolishqobiliyatini ta'minlaydi,

qiziqishini oshiradi, talabalarning fikr va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'lishlariga ko'maklashadi. Rivojlantiruvchi ta'limning murakkab tomoni shundaki, talabalar individual rivojlanganligi uchun ular ayni bir natijaga turli yo'llar orqali erishadilar.

Shular bilan birga bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan ko'plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev a'moli bilan aytganda "Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilmfan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz.

Hozirda zamonaviy globallashuv jarayonida har qanday mamlakat taraqqiyotining yetakchi omillaridan biri ta'lim tizimi hisoblanadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bosib o'tgan yo'lga nazar solsangiz, ular aynan ta'limga asosiy e'tiborini qaratganiga guvoh bo'lasiz.

Ta'lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik, ijtimoiy faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi shundaki, bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda yangi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi asosida dars jarayonini tashkil etish bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, umum ta'lim maktablarining dars o'tish xonalari texnik va estetik jihatdan talab darajasida tayyorlandi, sinfxonalar videoproyektor hamda kompyuter texnikasi bilan ta'minlanib, axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o'tishga moslashtirildi. Bular o'quvchilarning sifatli va samarali bilim olishlarida asosiy texnik vositalar bo'lib hisoblanadi. Shuning bilan birga hozirda darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish, yosh pedagog o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, texnoparklar tashkil etilib o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarini ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishishlmoqda.

Oxirgi yillarda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda, buning sababi, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda

talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishga yo'naltiradi. O'qituvchi esa bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shu boisdan oliy o'quv yurtlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Umumta'lim maktablarning rivojlanishidagi asosiy omil sifatida innovatsiyalarni tasdiqlash bizning davrimizning muhim xususiyatlaridan biridir. Buning sababi shundaki, innovatsiyalarni idrok etish qobiliyati va innovatsion rivojlanish yo'lini tanlash ijtimoiy o'zgarishlarning tobora kuchayib borayotgan dinamikasi va tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida maktabni omon qolish va rivojlantirishga imkon beradi. Ilmiy va pedagogik faoliyat mazmunini o'zgartiradigan inqirozli vaziyatlarni yengib o'tgan bunday muassasalar zamon talabiga javob berishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritadi, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniishga erishiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshishga undaydi. Shuningdek bu ularda mas'uliyatni his etishni, tahlil qilish, adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagog shaxsiga, o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llashni ham taqozo etadi. Ular xilma-xildir. Zamonaviy metodlar, o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, yetuk mutaxassis kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

### **Xulosa**

Bugungi ta'lim tizimi va tarbiya tizimini maqsadga muvofiq tashkil etish., tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish zarur. Tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda. Bizning boy ma'naviy merosimiz bugun qo'lga kiritadigan yutuqlarimiz ertaga erishmoq darkor. Shu bilan birga, respublikadagi umumta'lim maktablarining innovatsion faoliyatini har tomonlama baholashning samarali usullarini ishlab chiqish muammosi hali yetarlicha to'liq aks ettirilgan emas va bu o'z navbatida chuqur tadqiqotlarni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан инновацион тараққиёт асоси // Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021.
2. Калконов Э.Т. Янги Ўзбекистонда ёш авлодни тарбиялашда таълим тарбиянинг роли // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022.
3. Жумаева, Ш. Б. Глобаллашув шароитида ёшлар тарбиясининг ўзига хос жиҳатлари. *Science and Education*, 1(Special Issue 1), 2020. 45-52.